



\_\_\_\_\_ *hokimligi*  
*maktabgacha va maktab ta'limi*  
*boshqarmasi*

\_\_\_\_\_ *maktabgacha va*  
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi*  
*\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*tarix fani o'qituvchisi*

\_\_\_\_\_ *ning*  
*20\_\_-20\_\_-o'quv yilida 11-sinflar uchun*  
*IV chorak jahon tarixi fanidan*

# **DARS**

# **ISHLANMALARI**

20\_\_-20\_\_-o‘quv yili 11-sinf jahon tarixi fanidan IV chorak  
taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Ko‘rfaz arab mamlakatlari	1		
2.	Falastin va Isroil: Ikki xalq uchun ikki davlat	1		
3.	Lotin Amerikasi mamlakatlari.	1		
4.	Afrika mamlakatlari.	1		
5.	XX asr oxiri – XXI asr birinchi choragida globallashuv muammolari, harbiy, ekstremistik	1		
6.	XX asr oxiri – XXI asr birinchi choragida barqaror rivojlanish va etno-ijtimoiy muammolar	1		
7.	<b>CHSB-2. (40 ball)</b>	1		
8.	XX asr oxiri – XXI asr birinchi choragida ilmiy- texnik taraqqiyot: Ilm-fan rivoji, adabiyot va san’at.	1		

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

## **Mavzu: Ko‘rfaz arab mamlakatlari**

### **Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** 1991-yildan boshlangan davrida dunyoning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tizimida katta o‘zgarishlar ro‘y berganligi, bu davrda jamiyat hayotining barcha jabhalariga kuchli ta’sir ko‘rsatgan omil ilmiy-texnik inqilobning yangi bosqichi — kompyuter-axborot inqilobi bo‘lganligi, bu inqilob ta’siri ostida rivojlangan mamlakatlarda sivilizatsiyaning industrial bosqichidan postindustrial, axborot bosqichiga o‘tish boshlanganligi haqida tushuncha berish.

**Tarbiyaviy:** jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichini tahlil qilish va mustaqil hayotga qadam qo‘yish arafasida turgan o‘quvchilarga o‘z hayotiy istiqbolini belgilab olish imkonini beruvchi bilimlarni shakllantirish.

**Rivojlantiruvchi:** jahon xalqlari madaniyatining har biri o‘ziga xos noyob ekanligini, gumanizm va vatanparvarlik tamoyillari, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat g‘oyalari asoslangan umuminsoniy qadriyatlarni anglashga ko‘maklashish, jamiyat taraqqiyotining muhim qonuniyatlarini bilib olish, rivojlanishning o‘ziga xos yo‘llarini tushunish va istiqbollari haqida tushuncha berish.

### **O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar tizimi.**

#### **II. FK-fanga oid kompetensiyalar**

**1.FK1-** Tarixiy voqeilikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyasi:

**2.FK2-** Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasi.

**Darsning metodi:** og‘zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

#### **Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo‘limlar</b>	<b>Vaqt</b>
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

#### **III. Yangi mavzu bayoni:**

Saudiya Arabistoni Podshohlari Arabiston yarimorolining 80% hududini egallagan davlat. Unda 2025-yilga kelib, 38,8 milliondan ziyod aholi yashaydi, shundan 38% dan ortig‘i chet elliklar. Saudiya Arabistoni Amerikaning “Aramco” kompaniyasi bilan neft qazib olish to‘g‘risida kelishuvga erishgandan so‘ng boylarning timsoliga aylandi. Tezda Saudiya Arabistonida neft konlari ishga tushib, mamlakat qiyofasi o‘zgarib ketdi. Ammo XX asr oxirlarida mamlakatda beqarorlik belgilari paydo bo‘lib, podshoh oilasi bir qator islohotlarni o‘tkazdi. Xususan, 1990-yillari mamlakat tarixida birinchi konstitutsiya qabul qilindi, chet ellik investorlar uchun fond birjasi ochildi. Podshoh Abdulloh (Abdulloh bin Abdulaziz bin Abdurrahmon Ol Saud) davrida (2005-2015) 2005-yili mahalliy kengashlarga saylovlar o‘tkazildi; podshohlik Jahon savdo tashkiloti (JST)ga a‘zo bo‘ldi; 2007-yili korrupsiyaga qarshi qonunlar qabul qilindi, ammo ular samara bermadi. Shundan so‘ng podshoh oila a‘zolariga davlat xazinasidan shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalanish taqiqlandi (ular qariyb 22 ming kishi, shundan faqat 2 mingi mamlakat boyligini nazorat qilish huquqiga ega). Podshoh buyrug‘iga ko‘ra, chet ellarda ta’lim olishni istagan saudiyalik yoshlar uchun mablag‘ ajratildi. Podshohlikning o‘zida ham podshoh Abdulloh nomidagi Fan va texnologiyalar universiteti ochildi, unda qizlarning ham ta’lim olishiga ruxsat berildi,



malika Nora al-Fayz ayollar ishlari bo'yicha vazir o'rinbosari etib tayinlandi. 2015-yili podshoh Abdulloh vafot etgandan so'ng taxtga 80 yoshli Salmon bin Abdulaziz Ol Saud

keidi. Hozir mamlakatni uning nomidan valiahd shahzoda Muhammad bin Salmon Ol Saud boshqarib kelmoqda. Mamlakatda turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan, 50 ga yaqin davlatlar fuqarolari Saudiyaga vizasiz kirishi mumkin. Saudiyada musulmonlarning muqaddas shaharlari Makka va Madinadan boshqa diqqatga sazovor joylar ham anchagina. Ular qatoriga Jidda shahrini, 1999-yili ochilgan Milliy muzeyni, 2002-yili ishga tushgan Qirollik markazi (Burj al-Mamlaka) va boshqalarni kiritish mumkin. Saudiya mintaqaning XXI asrga mos

ravishda qadam tashlayotgan yetakchi davlatiga aylandi.

O'zbekistonning Saudiya Arabistoni bilan munosabatlarini shartli ravishda ikki davrga ajratish mumkin: 90-yillardan 2017-yilgacha va 2017-yildan bugungi kungacha. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki 25 yilida erishilgan qator davlatlararo kelishuvlar O'zbekiston Respublikasining bu mamlakat bilan hozirgi o'zaro munosabatlarini faollashtirishga asos bo'lib xizmat qildi. 2017-yildan so'ng ikki tomonlama aloqalar, ayniqsa, iqtisodiy hamkorlik jadal rivojlanish yo'liga kirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil avgustda Saudiya Arabistoniga qilgan davlat tashrifi doirasida energetika va neft-kimyo sohasidagi sheriklikni kengaytirish ikki tomon uchun ham manfaatli ekanligini ta'kidladi. Bugungi kunda "ACWA Power" kompaniyasi bilan jami 2 milliard 600 million dollarlik yirik energetika loyihalari boshlangan. Kimyo tarmog'ida "SABIC" kompaniyasi bilan sheriklik istiqbolli ekanligi aytilmoqda. Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) 1971-yil 2-dekabrda Abu Dabi amirligining shayxi Zoid bin Sulton Ol-Nahayon tashabbusi bilan tashkil topgan. BAA yettita — Abu Dabi, Dubay, Sharja, Ajman, Umm ul-Qayvayn, Ras ul-Xayma va Al-Fujayra amirliklaridan iborat. Mamlakatdagi neft boyliklarining 95% i Abu Dabi, 5% i Dubayga tegishli. Faqat shu ikki amirlik mamlakat qonunchiligidagi muhim masalalar bo'yicha qarorlarga veto qo'yish huquqiga ega. BAAning 85% aholisi migrantlardan iborat bo'lib, ular davlat boshqaruvidan boshqa barcha sohalarda ishlaydi. BAA fuqarolari, asosan, davlat boshqaruvi tashkilotlarida faoliyat yuritadi, boshqa ma'lum bir qismi o'z biznesiga ega. Mamlakatda ta'lim (oliy ta'lim ham) bepul. Birinchi kursni faqat "a'lo" baholarga bitirgan talabaga universitet ma'muriyati dunyoning istalgan eng yaxshi universitetlarida o'qish huquqini beradi va xorijga borish-kelish, yashash hamda kontrakt pullarini to'lashni o'z zimmasiga oladi. Xorijga o'qishga ketgan talabaga har oyda 2000 AQSH dollari miqdorida stipendiya to'lab boriladi. BAAda barcha tibbiy xizmatlar va dori-darmon bepul. BAA fuqarosi chet elda davolansa, u davlat tomonidan moddiy qo'llab-quvvatlanadi. BAAda turizm rivojlangan. Mamlakatning turistik poytaxti Dubay shahri hisoblanadi. 1999-yildan amirlikda baland binolar qurish avj oldi. Bu jarayon 39 qavatli Dubay Xalqaro savdo markazini qurishdan boshlandi. O'n yildan ortiq vaqt davomida balandligi 220 metr bo'lgan 39 ta bino qurildi. Hozir qurilayotgan dunyodagi eng baland — 122 qavatli "Pentominium" binosining balandligi 516 metr bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019-yil martda BAAGA amalga oshirgan tashrifi O'zbekiston — BAA munosabatlari rivojida yangi bosqichni boshlab beradi. O'zbekistondagi an'anaviy va muqobil energiya tarmoqlarini rivojlantirish uchun BAAning "Masdar" va "Mubadala Development Company" kompaniyalari 2019-yilda 10 milliard AQSH dollari miqdorida sarmoya kiritgan. Sh. Mirziyoyevning 2025-yil yanvarda BAAGA tashrifi davomida ikki mamlakat o'rtasida Strategik sheriklik munosabatlarini o'rnatish to'g'risidagi deklaratsiya imzolandi. Prezidentlar 2025-2027-yillarni O'zbekiston va BAA o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning yangi davri deb e'lon qildi va 2030-yilga qadar o'zaro savdo hajmini 10 barobarga ko'paytirish asosiy vazifa etib belgilandi. 1951 -yili Kuvayt amiri "Kuwait oil company" kompaniyasi bilan neftdan tushadigan daromadni teng bo'lish to'g'risida kelishuv imzoladi. Bu birozdan so'ng mamlakatning keskin

boyib ketishiga olib keldi. 1961-yilda Kuvayt to'liq mustaqillikka erishdi. 1990-yil 2-avgustda Iroq armiyasi Kuvaytga bostirib kirdi. Amir va uning oilasi mamlakatni tashlab qochib ketdi. Xalqaro koalitsiya tomonidan 1991 -yili 28-fevralda Kuvayt ozod qilindi va harbiy harakatlar to'xtatildi. Iroq agressiyasi Kuvaytni mintaqaviy xavfsizlik konsensiyasini to'liq qayta ko'rib chiqishga ma'bur qildi

1991-yil sentyabrda AQSH bilan harbiy hamkorlik to‘g‘risida 10 yil muddatga shartnoma tuzildi. 1992-yili shunday shartnomalar Angliya va Fransiya bilan ham imzolandi.

Agressiyaning iqtisodiy oqibatlari ham juda og‘ir bo‘ldi, S. Husayn mamlakatning asosiy boyligi bo‘lgan neft konlarini yoqib yubordi. Ammo 1993-yilga kelib, neft eksportidan tushadigan daromad urushdan oidingi darajasidan oshib ketdi va 9,9 milliard dollarni tashkil qildi. Shundan so‘ng iqtisodiy holat muttasil yaxshilanib bordi. 1990-yillarning oxiriga kelib, neft sotishdan olinadigan daromad 13,5 milliard dollarga yetdi. XXI asr boshiga kelib, Kuvayt faol kapital eksport qilayotgan davlatlardan biriga aylandi. Kuvaytdan janubda Qatar amirligi joylashgan. Qatar 1971-yil 3-sentyabrda mustaqillikka erishdi. Qatar aholi jon boshiga daromadi bo‘yicha dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari qatoriga kiradi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha Qatar dunyoda beshinchi o‘rinda bo‘lib, 2023-yili YIM aholi jon boshiga 121124 AQSH dollariga yetdi. Mamlakatning asosiy boyligini neft tashkil qiladi. Ishlayotganlarning faqat 20% i Qatar fuqarolari, qolganlari boshqa mamlakatlar, asosan, Hindiston va Pokistondan kelganlar. Qatar tabiiy gaz zaxirasi bo‘yicha dunyoda uchinchi, uni eksport qilish bo‘yicha oltinchi o‘rinda turadi. Shuningdek, u neft va neft mahsulotlari eksporti bo‘yicha ham oltinchi o‘rinni egallaydi. Qatar hozirgi vaqtda turizm sohasini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratmoqda. Mamlakatda Turizm bo‘yicha boshqarma tashkil qilingan. Bahrayn Qatarga yaqin joyda, 30 ta oroldan iborat arxipelagda joylashgan. Bahrayn ham 1971-yil avgustda mustaqillikka erishdi. Bu yerda dunyoda eng katta neftni qayta ishlash zavodlaridan biri joylashgan bo‘lib, u neft quvuri orqali Saudiya Arabistonidan keladigan neftni qayta ishlaydi. Yangi qurilgan Salmon porti savdoning rivojlanishiga ko‘maklashmoqda. Tashib keltiriladigan xomashyo hisobiga alyumin erituvchi yirik “Aluminium Bahrain” (“ALBA”) zavodi faoliyat yuritadi. Bahrayn mintaqadagi boshqa davlatlarga namuna bo‘lishga intilmoqda. U Fors ko‘rfazining moliyaviy va savdo markaziga aylandi. Chet elliklarga mamlakatda korxonalar tuzish va hatto yer sotib olishga ruxsat berilgan. Qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun mamlakat hududining 5% idan foydalaniladi, xolos. Bahraynning eng katta boyligi — 360 kun quyoshli issiq havo bo‘lishi va iliq dengiz, shuningdek, butun qirg‘oq bo‘ylab joylashgan juda katta qumloq plaj. Mamlakatda turizm rivojlanmoqda, yangi mehmonxonalar qurilyapti. Mamlakatning 33% aholisini chet elliklar tashkil qiladi. Arabiston yarimorolining eng janubiy qismida O‘mon davlati joylashgan. 1996-yili sulton Qobus O‘monning birinchi konstitutsiyasini imzoladi. Konstitutsiya vakillik va maslahat organi — O‘mon Kengashi tuzilishini ko‘zda tutdi va fuqarolarning asosiy huquqlarini e‘lon qildi. O‘mon aholisining 50% ga yaqini ishchi-immigrantlar va ularning oila a‘zolaridan iborat. O‘mon iqtisodiyoti asosini neft eksporti tashkil qiladi. Neft zaxiralarining kamayishi sababli O‘mon hukumati 2016-yili iqtisodni diversifikatsiya qilish — gaz qazib chiqarishni ko‘paytirish, qayta ishlash sanoati, qishloq xo‘jaligi, baliqchilik va turizmni rivojlantirish rejasini qabul qildi.

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:**

1. Ko‘rfaz arab mamlakatlari fuqarolarining ijtimoiy himoyasi qanday tashkil qilingan?
2. Yuqorida keltirilgan mamlakatlarning jadal sur‘atlar bilan rivojlanishiga qaysi omillar ta‘sir qilgan?
3. O‘monda qabul qilingan iqtisodni diversifikatsiya qilish rejasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
4. Arab mamlakatlari aholisining katta qismini chet elliklar tashkil qilishini nima bilan izohlash mumkin?

**V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish.** darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

**VI. Uyga vazifani e‘lon qilish:** 2020-yilda Bahrayn YIMida qishloq xo‘jaligining ulushi 0,28% ni tashkil qilgan. Fors ko‘rfazida joylashgan arab mamlakatlarida qishloq xo‘jaligi sohasi deyarli rivojlanmaganligining sababi nimada? Javobingizni asoslang.

**O‘IBDO‘:** \_\_\_\_\_

(imzo)

(sana)

*vab-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)*

*Zokirjon.com. vab-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

## **Zokirjon Admin bilan**

**90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.**

**Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi**

**30 listdan iborat 11-sinf jahon tarixi fanidan IV chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.**




Telegram kanalimiz:

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To'lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



### **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To'liq holda olganingizdan so'ng:  
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali vab-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA  
HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!***

***Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'g'arak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**